

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**G‘OPIROV MAXMUDJON ODILJANOVICH**

**ASAKA AVTOMOBIL ZAVODI: HUDUDIY VA TARMOQ  
RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARI, FARG‘ONA MINTAQASI  
IQTISODIYOTI VA SANOATNING TRANSFORMATSIYASIGA TA’SIRI**

**11.00.02-iqtisodiy va ijtimoiy geografiya**

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2023**

**Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по географическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
geographical sciences**

**Gopirov Maxmudjon Odiljanovich**

Asaka avtomobil zavodi: hududiy va tarmoq rivojlanishi xususiyatlari, Farg'ona mintaqasi iqtisodiyoti va sanoatining transformatsiyasiga ta'siri.....3

**Гопиров Махмуджон Одилжанович**

Асакинский автомобильный завод: особенности территориально-отраслевого развития, влияния на экономику и трансформацию промышленности Ферганского региона.....19

**Gopirov Makhmudjon Odilzhanovich**

Asaka automobile plant: features of territorial and sectoral development, impact on the economy and transformation of the industry of the Ferghana region.....37

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 41

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**G‘OPIROV MAXMUDJON ODILJANOVICH**

**ASAKA AVTOMOBIL ZAVODI: HUDUDIY VA TARMOQ  
RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARI, FARG‘ONA MINTAQASI  
IQTISODIYOTI VA SANOATNING TRANSFORMASIYASIGA TA‘SIRI**

**11.00.02-iqtisodiy va ijtimoiy geografiya**

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertasiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2022.4.PhD/Gr219 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertasiya Anijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.samdu.uz](http://www.samdu.uz)) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portali ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Mamajonov Mo‘minjon**  
geografiya fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Turdimambetov Izimbet Raxmetovich**  
geografiya fanlari doktori, professor

**Usmanov Zakir Karimovich**  
Geografiya fanlari nomzodi

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan davlat universiteti**

Dissertasiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021. Gr.02.07 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil 21-iyul soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 140104, Samarqand sh. Muqimiy ko‘chasi, 45-uy. tel.: (0366) 239-16-36), faks: (0366) 239-11-40; E-mail: [ik-geografiya2019@mail.ru](mailto:ik-geografiya2019@mail.ru).

Dissertasiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№\_\_raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel: (+99866) 233-60-87.

Dissertasiya avtoreferati 2023yil «\_\_» \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.  
(2023yil «\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_raqamli reyestr bayonnomasi).

**S.B.Abbasov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
Kengash raisi, g.f.d., professor

**B.A.Meliyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash kotibi, g.f.f.d. PhD.

**A.Abdulqosimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, g.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)**

**Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyo miqyosida avtomobil sanoatining shakllanishi va rivojlanishi, jahon savdo bozori munosabatlari, ishlab chiqarilayotgan avtomobillarning eksport salohiyatini tahlil qilish, yo‘l qurilishi va transport sohasida zamonaviy texnologiya va innovasiyalarni joriy qilish yuzasidan ilmiy izlanishlarga alohida e‘tibor berilmoqda. Shuningdek, avtomobil sanoatini yanada rivojlantirish, sohadagi biznes muhitini sog‘lomlashtirish, ilg‘or tajribalarni joriy qilish, zamonaviy bozor mexanizmlarini keng tatbiq qilish hamda boshqaruv usullarini joriy qilish asosida sohaning yanada raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

So‘nggi yillarda respublikamizda avtomobilsozlik sanoatini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash, mamlakatda avtomobil transporti sohasidagi davlat boshqaruvi va avtosanoat rivojini yangi bosqichga ko‘tarish, tizimini tubdan takomillashtirish, respublika eksport salohiyatini oshirish, transport kommunikasiyalarini strategik rivojlantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida «avtomobil sanoatida sog‘lom raqobat muhitini rivojlantirish va korxonalariga teng sharoitlar yaratish orqali sohada ishlab chiqaruvchilar sonini ko‘paytirish» bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan<sup>1</sup>. Bu borada, respublika sanoatida yetakchi tarmoq hisoblangan avtomobilsozlik sanoatining shakllanishi, mustaqil O‘zbekiston avtomobil sanoatini vujudga kelishining ahamiyati, mustaqillik yillarida soha rivojining bosqichlari va undagi muammolar, avtomobil sanoatidagi innovasiyalarni geografik nuqtai nazardan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 1 fevraldagi PF-5647-son «Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 iyundagi PQ-3028-son «Avtomobil sanoatini 2017-2021 yillarda yanada rivojlantirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2019 yil 1 fevraldagi PQ-4143-son «O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida» va 2019 yil 18 iyuldagi «O‘zbekiston Respublikasi avtomobil sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarorlari hamda sohaga oid meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi // <https://president.uz/uz/lists/view/40576>

madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Iqtisodiyot va sanoatning hududiy-tarmoq tuzilishini oʻrganishning nazariy va amaliy jihatlari A.Veber (Germaniya), V.Kristaller (Germaniya), B.Lundval (Shvesiya), F.Perru (Fransiya), I.Tyunen (Germaniya), G.Myurdal (Shvesiya), U.Izard (AQSH) va boshqa iqtisodchi va iqtisodiy-geograflar tomonidan oʻrganilgan.

MDH mamlakatlarida sanoatning hududiy-tarmoq tuzilishidagi oʻzgarishlar va uning iqtisodiy geografik jihatlari tadqiq etish bilan I.M.Mayergoyz, Y.N.Gladkiy, A.V.Makarenko, M.S.Muxametova, I.A.Aleksandrov, P.A.Andreyevskiy, E.B.Alayev, V.L.Baburin, P.Y.Baklanov, M.K.Bandman, A.V.Bogdanovich, V.I.Vidyapin, A.P.Gorkin, A.G.Granberg, A.Y.Bannikov, D.V.Pecherisa, N.N.Kolosovskiy, P.A.Minakir, A.V.Moshkov, Y.G.Saushkin, O.I.Shabliy, M.D.Sharigin, A.T.Xrushev V.I.Chasovskiy va boshqa olimlar shugʻullanishgan.

Oʻzbekistonda respublika sanoati va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining geografik jihatlari oʻrganish Z.M.Akramov, Q.N.Abirqulov, O.B.Ata-Mirzayev, E.A.Axmedov, K.N.Bedrinsev, A.S.Soliyev, A.A.Qayumov, O.Abdullayev, D.Ruzmetov, A.N.Ruziyev, H.A.Abdunazarov, S.L.Yanchuk, R.Z.Rayimjonov, SH.S.Djurayev va boshqalarning ilmiy asarlarida aks etgan.

Lekin, Oʻzbekistonda sanoatning rivojlanishiga bagʻishlangan koʻplab tadqiqotlar olib borilganligiga qaramay, hozirgi kunga qadar Fargʻona mintaqasi iqtisodiyotiga taʼsir koʻrsatadigan mintaqaviy sanoatning «oʻsish qutbi» va hududiy va tarmoq tarkibini transformasiyasini katalizatori rolini oʻynaydigan jadal rivojlanayotgan avtomobilsozlik sanoatini har tomonlama tahlil qilishga bagʻishlangan iqtisodiy-geografik ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan. Mazkur dissertasiya ishi aynan shu ilmiy-amaliy masalalarni tadqiq etishga bagʻishlangan.

**Dissertasiya mavzusining dissertasiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi.** Dissertasiya ishi Andijon Davlat universiteti geografiya kafedrasida ilmiy tadqiqot ishlar rejasining «Fargʻona vodiysi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining geografik jihatlari» mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Oʻzbekistonning Fargʻona mintaqasida Asaka avtomobil zavodining iqtisodiyotni tashkil etishdagi oʻzgarishlarga va sanoatning transformasiyasiga taʼsirini iqtisodiy-geografik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Oʻzbekiston va Fargʻona mintaqasi hududiy va tarmoq tuzilmasidagi soʻsovet oʻzgarishlarining iqtisodiy-geografik xususiyatlari va sanoatning rivojlanish dinamikasini oʻrganish;

mintaqaviy sanoatning joylashuviga tarixiy-geografik omillarning taʼsirini aniqlash, Oʻzbekistonda avtomobilsozlik sanoatining shakllanishi va rivojlanishiga yordam beradigan zamonaviy sanoat siyosatini tahlil qilish;

Andijon viloyati va Farg‘ona mintaqasi sanoatining hududiy va tarmoq tarkibi, ixtisoslashuvi va dinamikasidagi o‘zgarishlarga avtomobil zavodining ta’sirini qiyosiy tahlil qilish;

O‘zbekiston va Farg‘ona mintaqasida avtomobilsozlik sanoatini shakllantirishda klasterli yondashuv samaradorligini baholash, Asaka avtomobil zavodining klasterdagi o‘rni va uning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, Farg‘ona mintaqasidagi ta’lim muassasalarining hududiy tarmoqlarini rivojlantirishga ta’sirini ko‘rsatish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida Farg‘ona mintaqasi sanoatining hududiy-tarmoq tarkibi olingan.

**Tadqiqotning predmeti** Asaka avtomobil zavodining Farg‘ona mintaqasi sanoat va iqtisodiyotining hududiy va tarmoq tarkibining o‘zgarishiga ta’siri.

**Tadqiqotning usullari:** dissertasiyada tavsiflovchi, qiyosiy geografik, kartografik, statistik, klaster va boshqa usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor avtomobil zavodi faoliyatining mintaqa sanoatining hududiy va tarmoq tuzilmasini rivojlantirishga va Farg‘ona mintaqasidagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning o‘zgarishiga ta’sirini kompleks iqtisodiy-geografik tahlil qilish amalga oshirilgan;

mintaqada avtomobilsozlik sanoatining rivojlanishining asosiy omillarini tahlil qilish natijasida, uning mintaqaviy iqtisodiyotni transformasiyasidagi multiplikativ effekti aniqlangan;

Farg‘ona mintaqasi viloyatlaridagi iqtisodiy vaziyatni qiyosiy geografik tahlil qilish natijasida mintaqa sanoati va iqtisodiyotini modernizatsiyalashga maqbul klasterli yondashuv taklif etildi.

ArcGIS dasturi yordamida birinchi marta 1:250000 masshtabdagi bir qator xaritalar tuzilib, unda Farg‘ona mintaqasining avtomobilsozlik sohasiga oid kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalari joylashuvi ko‘rsatilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

korxonalarni joylashtirish, O‘zbekiston avtomobil sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bog‘liq bir qator yangi tematik geografik xaritalar va kartosxemalar taklif etilgan;

Farg‘ona mintaqasining avtomobilsozlik sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik xaritasi yaratildi;

Asaka avtomobil zavodining shakllanishi munosabati bilan mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasidagi o‘zgarishlar isbotlangan;

Farg‘ona iqtisodiy rayoni sanoatini samarali rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar, istiqbolli yo‘nalishlar ishlab chiqildi;

sanoat geografiyasida klasterli yondashuv taklif qilindi va mintaqaning potensial hududiy sanoat klasterlari jadvali yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va hududiy davlat boshqaruvi va statistika organlarining rasmiy materiallaridan foydalanish, nufuzli mualliflar bilan bog‘liq ko‘plab ilmiy adabiyotlar manbalarini tahlil qilish, «UZAUTO MOTORS» AJ va

«Uzavtosanoat» AJ ma'lumotlaridan foydalanilganligi, shuningdek, tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan ilmiy ishlanmalar, xaritalar, ilmiy taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarni vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sanoatning hududiy tuzilishidagi o'zgarishlarni iqtisodiy-geografik o'rganish metodologiyasini takomillashtirilganligi, iqtisodiy rayonlashtirish, sanoat ishlab chiqarish va atrof-muhitni boshqarishning hududiy tizimlarini ajratilganligi va tipologiyasini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishda keltirilgan tavsiyalar va xulosalardan O'zbekiston iqtisodiy rivojlanish vazirligi, O'zbekiston sanoat va savdo vazirligi, davlat ijro hokimiyati organlari, mahalliy hokimiyatlar ijtimoiy-iqtisodiy rejalar va dasturlarini shakllantirishda, mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishi va investisiya siyosatida foydalanishlari mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Asaka avtomobil zavodi: hududiy va tarmoq rivojlanishi xususiyatlari, Farg'ona mintaqasi iqtisodiyoti va sanoatining transformasiyasiga ta'siri tadqiq jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

avtomobil zavodi faoliyatining mintqa sanoatining hududiy va tarmoq tuzilmasini rivojlantirishga va Farg'ona mintaqasidagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning o'zgarishiga ta'sirini baholovchi kompleks iqtisodiy-geografik tahlillardan «UzAuto Motors» AJ amaliyotida foydalanilgan («UzAuto Motors» aksiyadorlik jamiyatining 2023 yil 30 martdagi №17/17-25-0407 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, Asaka avtomobil zavodining Farg'ona mintaqasi bo'yicha sanoat ishlab chiqarishga, iqtisodiyotga, sanoat tarkibiy tuzilishiga va aholini ish bilan ta'minlash masalalariga ta'sir etishini aniqlash imkonini bergan;

Farg'ona mintaqasida avtomobilsozlik sanoatining rivojlanishining asosiy omillarini tahlil qilishga oid ilmiy natijalardan «UzAuto Motors» AJ amaliyotida foydalanilgan («UzAuto Motors» aksiyadorlik jamiyatining 2023 yil 30 martdagi №17/17-25-0407 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, butlovchi buyumlar va uzellar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirish, avtomobilsozlikni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan bazaviy xom ashyo va materiallar ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish bo'yicha tarmoqlararo kooperasiya aloqalarini kengaytirish hisobiga importning ulushini qisqartirish va mahsulot tannarxini pasaytirish imkonini bergan;

Farg'ona mintaqasidagi mavjud iqtisodiy vaziyatni qiyosiy geografik o'rganish va sanoatini modernizasiya qilishning strategik jihatdan maqbul rivojlantirish klasteri «UzAuto Motors» AJ amaliyotiga joriy etilgan («UzAuto Motors» aksiyadorlik jamiyatining 2023 yil 30 martdagi №17/17-25-0407 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, Farg'ona iqtisodiy rayoni sanoatini samarali rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlariga doir ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish imkonini bergan;

Farg'ona mintaqasining avtomobilsozlik sohasiga tegishli kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yo'nalishlari joylashuvini ifodalovchi 1:250 000 masshtabli turkum kartalari «UzAuto Motors» AJ amaliyotiga joriy etilgan («UzAuto Motors»

aksiyadorlik jamiyatining 2023 yil 30 martdagi №17/17-25-0407 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, Andijon viloyati ma'muriy tumanlariga tegishli iqtisodiy-ijtimoiy ma'lumotlarni kengaytirish va axborotlar bazasini yangilash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobeiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, ulardan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan 4 ta respublika, 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiyaning mazmuni kirish, uchta bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 123 betni tashkil etadi.

## DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekt va predmeti shakllantirilgan, O'zbekistonda iqtisodiy va ilmiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligini ko'rsatadi, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalarini bayon qiladi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyatini ochib beradi, tadqiqot natijalarining bajarilishi, chop etilgan ishlar va dissertasiyaning tuzilishi haqida ma'lumot beradi.

Dissertasiyaning «**Avtomobilsozlik geografiyasini o'rganishning nazariy va uslubiy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida, sanoat, shu jumladan avtomobilsozlik geografiyasining ilmiy toifalarini konseptual va terminologik tahlil qilish amalga oshiriladi, ularning mazmuni aniqlanadi.

Sanoat geografiyasi iqtisodiy geografiyaning eng yirik tarmoqlaridan biridir. Hatto bitta mamlakat sanoatini o'rganishda jahon iqtisodiy istiqboli, shuningdek, sanoat va umuman iqtisodiyotda sodir bo'layotgan asosiy jarayonlar to'g'risida bilish juda muhimdir. Shuning uchun biz avtomobilsozlik sanoatidagi hududiy va tarmoq o'zgarishlarini o'rganishda geografik, iqtisodiy, sosiologik va yaxlit iqtisodiy va geografik yondashuvlar metodologiyasini ko'rib chiqdik va tahlil qildik.

Ushbu yondashuvlarning har biri ushbu sohani ijtimoiy, iqtisodiy va geografik omillarning o'zaro bog'liqligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqishga imkon beradi. Avtomobilsozlik sanoatining hududiy joylashuvi xom ashyo, ishchi kuchining sifati, mutaxassislar va malakali mutaxassislar klasterlari yaqinida ishlab chiqarishning mavjudligi, investisiyalarning yetarliligi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, texnologik bazaning sifati kabi omillarga bog'liq, rivojlangan infratuzilmaning mavjudligi (transport yo'llari va yaxshi rivojlangan savdo tarmog'i), bozorlarining mavjudligi va boshqalar.

Mamlakatlar va mintaqalarda sanoatning joylashuvidagi sezilarli farqlar bir qator geografik, iqtisodiy, demografik, ijtimoiy va tarixiy sabablarga bog'liq

bo'lib, bu farqlar hozirgi kungacha saqlanib kelmoqda. Dunyo sanoatida barcha hududiy darajalarda — globaldan mahalliygacha katta tarkibiy siljishlar ro'y bermoqda, ular uning hududiy-sanoat va hududiy-tashkiliy tuzilishida, shu bilan birga xalqaro va mamlakat ichidagi geografik mehnat taqsimotida ham aks etadi.

O'zbekiston sanoati Sovet Ittifoqidan keyingi davrida sanoat korxonalarining hududiy-tashkiliy tuzilmasidagi quyidagi turdagi o'zgarishlar bilan ajralib turardi: ishlab chiqarish tarmoqlarining hududiy-tarmoqli tuzilishining alohida elementlarining butunlay yo'q bo'lib ketishi, sanoat korxonolari sonining kamayishi, sanoat tarmoqlari tarkibida yangi elementlarning paydo bo'lishi, elementlarning tabiiy resurslarning eng boy hududlariga tortilishi, elementlarning o'lchami (hajmi) va ularning sonining ko'payishi, sovet davriga nisbatan elementlarning hajmida (ishlab chiqarish hajmida) kichik o'zgarishlar.

O'zbekiston sanoatida sanoat tugunlari va markazlarining hududiy va tarmoq tuzilmasi transformasiyasi sodir bo'ldi. Iqtisodiy inqiroz davrida ichki talabning cheklanganligi sanoat hududlari, tugunlar va markazlarga tegishli korxonalar o'rtasidagi milliy ishlab chiqarish va texnologik aloqalarning uzilishiga olib keldi. Sanoat tuzilmasining yuqori diversifikasiyasi tufayli yirik sanoat markazlari mehnat unumdorligi, moliyaviy natijalar va rentabellik jihatidan o'rta va kichik markazlar va markazlarga qaraganda ancha qulay mavqega ega edi.

Sanoat markazlaridagi korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish ko'p jihatdan ularning tuzilishini rasionalizasiya qilishga bog'liq edi. Rasionalizasiya yo'nalishlaridan biri sanoat tugunlarining tuzilishini o'zgartirishga klasterli yondashuv edi. Sovet Ittifoqidan keyingi davrida O'zbekistonning sanoatida klasterlar rivojlana boshladi, ular kimyo va neft-gaz sanoati, avtomobilsozlik, yengil sanoat va boshqalarning asosiy tarmoqlari atrofida shakllandi.

Dunyoning mashinasozlik majmuasining asosiy tarmoqlaridan biri avtomobilsozlik sanoati bo'lib, u asosan eng yirik rivojlangan va aloxida rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining holatini belgilaydi, chunki birinchidan, bu muhim eksport tarmog'i, ikkinchidan, metall, elektr energiyasi, plastmassa, kauchuk, shisha va unga «bog'langan» ko'plab yetkazib beruvchilar.

Avtomobilsozlik sanoatining hududiy tuzilishida tarkibiy bo'linma (birlik), umuman sanoatda bo'lgani kabi, «sanoat korxonasi» hisoblanadi. Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, alohida sanoat korxonolari kamdan-kam hollarda ishlab chiqarish sanoatining qo'llab-quvvatlovchi doirasining tugun nuqtalariga aylanadi, odatda bu yuqori darajadagi taksonlar: sanoat majmualari, tugunlar, punktlar, markazlar va aglomerasiyalar.

Shunday qilib, sanoatni, shu jumladan avtomobilsozlikni joylashtirishning nazariy va uslubiy asoslarini o'rganish mintaqaviy iqtisodiyot va hududiy siyosatni rivojlantirish sharoitida muhim masala hisoblanadi. Ushbu sohadagi ilmiy tadqiqotlar avtomobilsozlik sanoatini yanada samarali joylashtirishga va mintaqaning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.


Dissertasiyaning «**O'zbekiston va Farg'ona mintaqasi avtomobilsozlik sanoatining joylashuv omillari, tarmoq tarkibi va geografiyasi**» deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekiston va Farg'ona mintaqasi iqtisodiyotining turli

rivojlanish davrlarida rivojlanish va ixtisoslashuv omillari o‘rganildi. Sanoat ishlab chiqarishining hududiy tarmoqlarini shakllantirishga katta ta‘sir ko‘rsatuvchi Farg‘ona mintaqasining iqtisodiy-geografik o‘rni va tabiiy resurslariga baho berilgan. Sovet va possovet davrida Farg‘ona mintaqasi sanoatining shakllanishi va rivojlanishining tarixiy-geografik xususiyatlari keltirilgan.

Alohida hududlar turlarini va ularning guruhlarini ularda ishlab chiqarishni rivojlantirish va joylashtirishning o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra iqtisodiy-geografik aniqlashning dastlabki sharti bo‘lgan sanoatning rivojlanish darajalari va tarmoq tuzilmalarining uyg‘unligiga qaramay, ko‘rib chiqilayotgan Farg‘ona mintaqasida ham sanoatning hududiy tuzilishi elementlari - sanoat punktlari, tugunlar, markazlar, tumanlarning notekis rivojlanishi kuzatilmoqda.

Milliy sanoatning yangi tarmog‘i - avtomobilsozlik sanoatining paydo bo‘lishi va rivojlanishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda, u nafaqat mashinasozlikda, balki umuman mintaqaviy sanoatda katta multiplikativ rol o‘ynay boshlagan.

Ushbu bobda avtomobilsozlik sanoatining O‘zbekiston iqtisodiyotidagi ahamiyati berilgan, Farg‘ona mintaqasida avtomobilsozlik sanoatining shakllanishi va rivojlanishi ko‘rib chiqiladi, shuningdek, hududiy hududiy-sanoat kompleksida yangi turdosh korxonalarni yaratish va rivojlantirishni belgilovchi ko‘plab omillar ta‘siri tahlil qilinadi (1-rasm.).




**1-rasm. 2018 yilda O‘zbekistonda avtomobil mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalar geografiyasi va soni**

Avtomobilsozlik sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biridir. U mamlakat yalpi ichki mahsulotining o‘rtacha 1,5 foizini va sanoat mahsulotining 10 foizini ishlab chiqaradi. Hozirgi kunda ushbu sohada 3000 dan ortiq korxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda. XX asr oxirida paydo bo‘lgan O‘zbekiston avtomobilsozlik sanoatini yangi strategik ahamiyatga ega tarmoqlar bilan bog‘lash mumkin, chunki O‘zbekiston Markaziy Osiyoda avtomobilsozlik rivojlangan

yagona mamlakatdir. Bugungi kunda yangi sanoat butun O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining kuchli «tayanchiga» aylanib bormoqda va eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda yetakchi avtomobil ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiyoti rivojlanayotgan o‘tish davri mamlakatlarning yangi rivojlanayotgan bozorlariga munosabati o‘zgardi, yangi texnologiyalar asosida avtomobillar ishlab chiqarish jarayoni takomillashtirilmoqda, mamlakatimizda avtomobilsozlik geografiyasi kengaymoqda.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston MDH va xorijiy Osiyo bozorida juda kuchli mavqega ega bo‘lgan raqobatbardosh ishlab chiqarish quvvatlariga ega avtomobilsozlik mamlakatidir. 1996-yilda Asaka shahrida zavod ishga tushirilishi bilan yangil avtomobillar ishlab chiqarish 11 barobardan ortiq o‘tdi va dinamik o‘shishda davom etmoqda (2-rasm).




**2-rasm. O‘zbekistonda avtomobil ishlab chiqarish dinamikasi**

Dissertasiyaning «Asaka avtomobil avtozavodining sanoatni o‘zgartirishga va Farg‘ona mintaqasi sosial iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri» deb nomlangan uchinchi bobida, Andijon viloyati sanoatining hududiy va tarmoq tuzilishini o‘zgartirgan avtomobil zavodining viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga, mehnat resurslarini ish bilan ta’minlashga, ta’lim muassasalarining hududiy tarmog‘ining ixtisoslashuviga ta’siri tadqiq qilingan.

Andijon viloyatida olib borilayotgan islohotlar munosabati bilan sanoat eksport xarakteriga ega bo‘la boshladi. Eksportning asosini avtomobillar (65%) va paxta mahsulotlari (22%) tashkil etadi. Andijon viloyati sanoat mahsulotlarini yalpi ishlab chiqarishda Asaka shahri yetakchi o‘rinni egallaydi – 64,9%, ya’ni viloyat ishlab chiqarishining 3/5 qismidan ko‘prog‘i, undan keyin Andijon shahri

16,9% ishlab chiqaradi, «UZAUTO MOTORS» AJ mintaqadagi eng yirik korxonalaridan biri (3 rasm).



### 3-rasm. 2018-2020 yillarda avtomobil ishlab chiqarishda Andijon viloyati ma'muriy tumanlari ulushining o'zgarishi.

\*Kartaning dissertasiyaga ilova qilingan nusxasi 1:250000 mashtabda tuzilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish iqtisodiyotni isloh qilishda muhim o'rin tutadi, unda qayta ishlash tarmoqlari va ishlab chiqarishni mahalliyashtirishga kata e'tibor qaratilmoqda. Ayni paytda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish ko'lamini kengaytmoqda. Avtomobilsozlik sanoatini mahalliyashtirishni chuqurlashtirish kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi (1-jadval).

### 1-Jadval Farg'ona mintaqasi viloyatlarida avtomobilsozlik sanoatining sanoat ishlab chiqarish hajmi va mahalliyashtirish indekslari

Farg'ona mintaqasi viloyatlari	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	Avtomobil mahsulotlari hajmi, milliard so'm	Ishlab chiqarish sanoati tarkibida avtomobilsozlik ulushi dinamikasi (2005 y. - 2020 y.)	Viloyat avtomobilsozlik sanoatining mahalliyashtirish indeksi
Andijon	36376,5	25609,0	75,6% - 70,4%	1,0
Namangan	11011,9	936,0	3,1% - 8,5%	1,1
Farg'ona	21701,2	1432,0	1,8% - 6,6%	0,8

Farg‘ona mintaqasi bo‘yicha natija	69089,6	27 977,0	27,5% - 40,5%	3,6
Uzbekiston Respublikasi bo‘yicha natija	305928,6	33 718,9	... - 11%	-

*Manba: Jadval muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 4.08.2021 yildagi materiallari asosida tuzilgan.*

Ushbu bobda avtomobilsozlik sanoatini rivojlantirish va ixtisoslashtirish yo‘nalishlarini, Farg‘ona mintaqasining keyingi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan mintaqaviy sanoatning hududiy tuzilishini takomillashtirish istiqbollari aniqlashga imkon beradigan klasterli yondashuv taklif etildi.


Avtomobilsozlik sanoatining jadal rivojlanishi va mintaqa sanoatining hududiy va tarmoq tarkibidagi o‘zgarishlar sohada yuz berayotgan o‘zgarishlarni hisobga olgan holda mamlakat hukumatining sanoat siyosatini doimiy ravishda tahlil qilish va tuzatishni talab qiladi.

Ushbu klasterning asosiy xususiyatlari vertikal va gorizontal o‘zaro bog‘liqlik, tarmoqlararo o‘zaro ta’sirning mavjudligi. Shu bilan birga, klasterga davlat idoralari va ta’lim muassasalari vakillari, shuningdek, ushbu mintaqada faoliyat yurituvchi qo‘shni klasterlar xam kiradi. Bizning fikrimizcha, klasterlararo munosabatlar yangi xo‘jalik yurituvchi subyektlar bilan o‘zaro munosabatlariga asoslangan xolda, boshqa klasterlarni rivojlantiradi.

Farg‘ona mintaqasi sanoati ko‘p tarmoqli. Mintaqada o‘zining ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda shakllanayotgan avtomobil klasteri yoqilg‘i, elektr energiyasi, xomashyo, tayyor mahsulot (komponentlar) bo‘yicha ko‘plab tarmoqlar bilan chambarchas bog‘lanib, tarmoqlararo sanoat majmuasini tashkil etadi (4-rasm).



**Mashinosozlik** QK «Uz-Koram Ko» bamper, panel asbob, eshik astarlari. QK «Uz-Tong Ko» avtomobil o'rindiqlari. QK «Uz-Dong Von Ko» yegzoz tizimlari, katalitik konvertorlar, avtomobillar uchun zarbaga chidamli eshik nurlari va panel qismlari. QK «Uz-Se Myung Ko» yoqilg'i baklari, avtomobillar uchun metall panellari va shtamplangan qismlar. Korxonalar «Avtosanoat komponent» yengil avtomobillar uchun shtamplangan payvandlangan qismlar. Korxonalar «Avtokomponent» AK-ASAKA susturucu korpuslari, yegzoz quvurlari tizimlari. QK «UzSangvu» katta va o'rta o'lchamdagi shtamplangan payvandlangan avtomobil qismlari, QK «Uz-Xanvu Injining» texnologik uskunalar, qoliplar, troslar, doikratlar, avtomobil ishlab chiqarish uchun shtamplash qismlari, QK «UzAvto-Austem» shassi komponentlari-avtomobil to'plamlari va po'lat g'ildirak disklari uchun. Boshqa mahalliy yetkazib beruvchilar (100 dan ortiq korxonalar kichik muhrlangan, qoplama, yehtiyot qismlar, uzellar, butlovchi qismlar, uskunalar va boshqalar.)



**5-rasm. Farg'ona viloyatining asosiy klaster tashkil etuvchi tarmoqlari va Asaka avtomobil zavodining tarmoqlararo ishlab chiqarish aloqalari**

Avtomobil multi-klasteri ko‘plab boshqa klasterlarning o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro kirib borishining yaxshi namunasidir. Bundan tashqari, mamlakatimizda klaster strategiyasini shakllantirish va amalga oshirish hududlarni mutanosib rivojlantirish, milliy va mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirish uchun asos bo‘ladi, Farg‘ona viloyati sanoatida klasterlar yaratish uchun zarur shart-sharoitlar shakllangan (5-rasm).

## XULOSA

1. Sanoat, jumladan, avtomobilsozlik sanoatining hududiy va tarmoq strukturasi o‘rganishda geografik, iqtisodiy va sosiologik yondashuvlar metodologiyalarini o‘zida mujassamlashtirgan kompleks ilmiy yondashuv qo‘llaniladi. Sanoat murakkab polistrukturali iyerarxik tizimdir. Avtomobil sanoatining hududiy va tarmoq tarkibidagi o‘zgarishlarga ta‘sir qiluvchi eng muhim omillar - bu xomashyoning mavjudligi, ishchi kuchining sifati, mutaxassislar va malakali mutaxassislar klasterlari yaqinida ishlab chiqarishning mavjudligi, investisiyalarning yetarliligi, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, texnologik bazaning sifati, rivojlangan transport infratuzilmasi mavjudligi, yaxshi rivojlangan tarqatish tarmog‘i, sotish bozorlarining mavjudligi.

2. Avtomobilsozlikda barcha hududiy darajalarda – globaldan mahalliygacha bo‘lgan katta tarkibiy siljishlar sodir bo‘lmoqda, ular uning hududiy-ishlab chiqarish va hududiy-tashkiliy tuzilishida ham, ayni paytda ham xalqaro, ham ichki geografik mehnat taqsimoti ham.

3. O‘zbekiston sanoati sovet davrida sanoat korxonalarining hududiy-tashkiliy tarkibidagi quyidagi turdagi o‘zgarishlar bilan tavsiflanadi: ishlab chiqarish tarmoqlarining hududiy-tarmoqli tuzilishining ayrim elementlarining butunlay yo‘q bo‘lib ketishi, sanoat ishlab chiqarishining qisqarishi, tarkibiy elementlarning soni, sanoat tarmoqlari tarkibida yangi elementlarning paydo bo‘lishi, elementlarning eng boy hududlarga tortilishi tabiiy resurslar, elementlarning hajmi (hajmi) va ularning sonining ko‘payishi, kichik o‘zgarishlar. Sovet davriga nisbatan elementlarning o‘lchami (ishlab chiqarish hajmi).

4. Farg‘ona mintaqasi xalq xo‘jaligi va viloyat iqtisodiyoti rivojlanishining barcha bosqichlarida iqtisodiyotning rivojlanishi va ixtisoslashuvining yetakchi omillari quyidagilardan iborat bo‘ldi: mintaqaning qulay iqtisodiy-geografik holati, tabiiy va mehnat resurslari. Mintaqaning rivojlanishining sovet davrida mamlakatda hududiy mehnat taqsimotiga eski ixtisoslashuv tarmoqlaridan tashqari yangilari ham qo‘shildi, masalan, avtomobilsozlik sanoati nafaqat sanoatda, balki mintaqada iqtisodiyotida ham muhim rol o‘ynay boshladi. Avtomobilsozlik sanoatining rivojlanishi avtomobil zavodlarining xo‘jalik ichidagi mexanizmini optimallashtirishni uyg‘unlashishi bilan birgalikda jarayonga hissa qo‘shishi kerak, buning natijasida bu sanoat «o‘sish qutbi» va o‘ziga xos «lokomotiv»ga aylanadi, milliy sanoatning boshqa tarmoqlarini ham o‘z ishlab chiqarish sohasiga jalb etib,

ularning har birining alohida-alohida, butun Farg‘ona mintaqasi iqtisodiyotining rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

5. Asaka avtomobil zavodining Andijon viloyati sanoatining hududiy-tarmoqli tarkibidagi o‘zgarishlarga hamda Farg‘ona mintaqasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga, mehnat resurslarini bandligini ta‘minlash va ta‘lim muassasalarining mintaqaviy tarmoqlarin shakllantirishga ta‘siri so‘zsiz ijobiydir. Avtomobilsozlikda asosiy bandlik Farg‘ona mintaqasi, Xorazm, Toshkent, Navoiy va Jizzax viloyatlariga to‘g‘ri keladi. Binobarin, avtomobil butlovchi qismlarini mahalliyashtirish va avtomobilsozlik sanoatini rivojlantirishning yuqori o‘shish sur‘atlari avtomobilsozlikda yangi ish o‘rinlari yaratish va mehnat resurslari bandligini tezlashtirmoqda.

6. O‘zbekistonda avtomobilsozlik sanoatining vujudga kelishi munosabati bilan nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy sohada, balki ta‘lim muassasalarini joylashtirishda, milliy ta‘lim tizimini moslashtirishda ham o‘zgarishlar yuz berdi. Avtomobil klasterining ta‘lim tarkibiy qismini takomillashtirish uchun ushbu yo‘nalishda kadrlar tayyorlashning mavjud tizimini takomillashtirish, ushbu tizimning ishlab chiqarish bilan innovasion hamkorligini modernizasiya qilish, o‘rta kasb-hunar va o‘rta maxsus ta‘lim ishlab chiqarishdan ajralmasligi kerak. Farg‘ona mintaqasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda avtomobilsozlikni mahalliyashtirishni chuqurlashtirish ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning kengayishi natijasida ijtimoiy barqarorlik asosi – o‘rta sinf shakllanmoqda.

7. Farg‘ona mintaqasida avtomobilsozlik sanoatini rivojlantirishda milliy sanoat majmuasining «o‘shish qutblaridan» biri sifatida klasterli yondashuv bugungi kunda maqbuldir. Farg‘ona mintaqasini klasterlashtirishning muhim yutug‘i sifatida Asaka shahridagi avtomobil zavodini ko‘rish mumkin, uning atrofida avtomobil butlovchi qismlarini tashkiliy ishlab chiqaradigan avtomobil klasteri shakllanishda davom etmoqda. Andijon avtomobil zavodi klasterning o‘zagi bo‘lib, uning atrofida sanoat ta‘lim va boshqa korxonalar va tashkilotlar birlashdi.

Avtomobil multi-klasteri ko‘plab boshqa klasterlarning o‘zaro aloqasini va o‘zaro ta‘sirining yaxshi namunasidir. O‘zbekiston avtomobilsozlik sanoati ko‘p jihatdan mamlakat iqtisodiyotining holatini belgilab beradi, chunki birinchidan, bu muhim eksport tarmog‘i bo‘lsa, ikkinchidan, unga metall, plastmassa, kauchuk, shisha va boshqalarni yetkazib beruvchi ko‘plab korxonalar «bog‘langan». Avtomobilsozlik sohasida ishlab chiqarish kooperasiyasi va avtomobillar eksporti geografiasini kengaytirish mamlakatning kelajakdagi rivojlanishining strategik omilidir. O‘zbekiston avtomobilsozlik korxonalari avtomobillar ishlab chiqaradi va eksport qiladi, ular tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishni rag‘batlantiradi. Bu borada O‘zbekiston klaster siyosati konsepsiyasini ishlab chiqishi kerak.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ  
ШАРОФА РАШИДОВА**

---

**АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**ГОПИРОВ МАХМУДЖОН ОДИЛЖАНОВИЧ**

**АСАКИНСКИЙ АВТОМОБИЛЬНЫЙ ЗАВОД: ОСОБЕННОСТИ  
ТЕРРИТОРИАЛЬНО-ОТРАСЛЕВОГО РАЗВИТИЯ, ВЛИЯНИЯ НА  
ЭКОНОМИКУ И ТРАНСФОРМАЦИЮ ПРОМЫШЛЕННОСТИ  
ФЕРГАНСКОГО РЕГИОНА**

**11.00.02 - Экономическая и социальная география**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ГЕОГРАФИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Самарканд – 2023**

**Диссертация доктора философии по географическим наукам (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № В2022.4.PhD/Gr219.**

Диссертация выполнена в Андижанском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.samdu.uz](http://www.samdu.uz)) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:** **Мамажанов Мўминжон**  
кандидат географических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** **Турдимамбетов Изимбет Рахметович**  
Доктор географических наук профессор

**Усманов Закир Каримович**  
кандидат географических наук

**Ведущая организация:** **Наманганский государственный университет**

Защита диссертации состоится 21 июля 2023 г. в 10<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова (Адрес: 140104, г. Самарканд, ул. Муками, 45. Тел.: (+99895) 410-20-10, факс: (+99866) 239-19-36; E-mail: [ik-geografiya2019@mail.ru](mailto:ik-geografiya2019@mail.ru)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарафа Рашидова (зарегистрирована под № \_\_\_\_\_). Адрес: г.Самарканд, проспект Университетский, 15. Тел: (+99866) 233-60-87.

Автореферат диссертации разослан: « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2023 года  
(реестр протокола рассылки № \_\_\_\_ от « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2023 года).

**С.Б.Аббасов**  
Председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
д.г.н., профессор

**Б.А.Мелиев**  
Ученый секретарь Научного совета  
по присуждению ученых степеней, д.ф.г.н. PhD

**А.Абдулкосимов**  
Председатель научного семинара  
при Научном совете по присуждению  
ученых степеней, д.г.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В последние десятилетия особое внимание уделяется научным исследованиям, посвященным становлению, развитию и изменениям в автомобильной промышленности, как на глобальном, так и на региональном уровнях, мировым торгово-рыночным отношениям, анализу экспортного потенциала стран, производящих автомобили, внедрению современных технологий и инноваций в области дорожного строительства и транспорта. Приоритет также отдается мерам, направленным на дальнейшее развитие автомобильной промышленности, улучшение бизнес-среды в отрасли, внедрение передового опыта, широкое применение современных рыночных механизмов и повышение конкурентоспособности отрасли на основе внедрения новых методов управления.

В последние годы в Узбекистане реализуются реформы, направленные на определение перспективных направлений развития автомобильной промышленности, поднятие на новый уровень государственного управления в сфере автомобильного транспорта и развития автопрома, кардинальное совершенствование системы по наращиванию экспортного потенциала Республики, стратегическим развитием национальных транспортных коммуникаций. В Послании Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису определены важные задачи по «увеличению числа производителей в отрасли путем развития здоровой конкурентной среды в автомобильной промышленности и создания равных условий для предприятий»<sup>2</sup>. В связи с этим актуальным становится выявление причин и пространственных факторов становления узбекской автомобильной промышленности, анализа этапов развития отрасли за годы независимости страны, выделение проблем и предложение путей их решения, в рамках комплексного экономико-географического исследования.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит решению задач, определенных в нормативно-правовых документах, относящихся к данной области, предусмотренных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-5647 от 1 февраля 2019 года «О мерах по коренному совершенствованию системы государственного управления в сфере транспорта», УП-3028 Президента Республики Узбекистан от 1 июня, 2018 «О мерах по дальнейшему совершенствованию управления и ускоренному развитию автомобильной промышленностью на 2017-2021 годы», Постановлениях № ПП-4143 от 1 февраля 2019 года «Об организации Министерства транспорта Республики Узбекистан» и «О дополнительных мерах по опережающему развитию автомобильной промышленности Республики Узбекистан» № ПП-4397 от 18 июля 2019 года.

---

<sup>2</sup>Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису <https://president.uz/ru/lists/view/4057>

